

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yaqin Sharqda vujudga kelgan vaziyat va Turkiyaning o'rni

Ikkinchi jahon urushidan so'ng kuchlar va dunyo qaytadan taqsimlandi. Germaniya fashizmi va Yaponiya militarizmi mag'lubiyatga uchratilishida SSSR ning hal qiluvchi kuch bo'lganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. II jahon urushidan so'ng Osiyo davlatlarida miliy ozodlik harakatlari avj oldi. Kuchlarning qayta taqsimlanishi xalqaro munosabatlarga katta ta'sir otkazdi. Endi dunyo siyosati uch to'rt yirik mamlakatninggina emas, butun insoniyatning ishiga aylandi go'yo. Butun dunyoda yangi mustaqil davlatlar paydo bo'laboshladi. Va bu jarayon Osiyoda, ayniqsa Yaqin va O'rta Sharqda avj oldi. Endi bu jarayonni tohtatishning imkoni yo'q edi. Arab milliy ozodlik harakatlari g'arb davlatlari tomonidan qattiq qarshilikka uchradi. Ular bu hududlarda hukumronlikni saqlashga urundilar. Bu urinishlar tarixga "Yaqin Sharq ishi" nomi bilan kirgan¹. Asosiy mustamlakachi davlatlar Angliya va Fransiya II jahon urushida g'olib bo'lsada, ancha zaiflashib qoldi. Ammo shunga qaramay ular yaqin sharq ishi deb nom olgan ishni davom ettirishdi. Angliya o'z mustamlakalarini saqlab qolish uchun Turkiyani tanladi. Turkiya Yaqin sharq bilan geografik va tarixiy jihatdan mustahkam bog'liq edi. Turkiya arab dunyosi bilan tarixiy, diniy va madaniy jihatdan yaqin edi. shu sababli Angliya Turkiya bilan kamunistik xavf bahonasi ostida ittifoq tuzdi. O'z navbatida Turkiya ham mintaqada gegemonlikka intilgan holda oldin Angliya bilan, keyin esa AQSH bilan ittifoq tuzdi. Shu yo'l bilan Turkiya Yaqin Sharqda mustaqil bo'lgan va mustaqillikka intilayotgan davlatlardan o'zib ketdi. Antisovetizm va Antikomunizm bahonasida Turkiya g'arb dunyosidan juda katta miqdorda iqtisodiy, harbiy, siyosiy yordam oldi. Turkiya ongli ravishda g'arb ittifoqiga qo'shildi. Bu ittifoqqa qo'shilish orqali Turkiya mamlakatda barqarorlikni ta'minlashga muvaffaq bo'ldi. Angliya va Turkiya Yaqin Sharqda harbiy ittifoqni vujudga keltirish maslasi bo'yicha fikrlari mustarak

¹ И.И. Ивановна. Турецко-Арабская отношения и их место системе международных связей на Ближнем Востоке (1945-1983). – Москва: 1985, с.7

edi. Turkiya Angliyaning yordamchisiga aylandi. Turkiya Iroq va Iordaniyaning Yaqin Sharq traktatiga qo'shilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Turkiya rahbarlari ushbu traktatning imzolanishiga jon-jahdlari bilan kirishdi. Bir qancha muzokaralar natijasida 1946 yilning 29 mart sanasida Anqarada Iroq bosh vaziri Nuri Said do'stlik to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdi. Ushbu shartnoma Turkiya va Iroqning harbiy va siyosiy hamkorligi to'g'risida edi. Iordaniya quroli Abdullohning Turkiyaga (1947 yil yanvar) tashrifi davomida Turkiya-Iordaniya shartnomasiga imzo chekdi. 1947 yil 15 apreldan so'ng Turkiya ikki ittifoqchiga ega bo'ldi. Boshida Yaqin Sharq pakti o'ta omadli bo'lib ko'ringan bo'lsa-da, aslida qolgan arab davlatlarining xech biri bu ittifoqqa a'zo bo'lmadi. Shu tariqa Yaqin Sharq pakti uch davlat Turkiya, Iroq va Iordaniya o'rtasida imzolangan shartnoma bo'lib qoldi. Bu shartnoma Yaqin Sharq mintaqasini qamrab olmadi. Harbiy agressiyaga asoslangan ushbu shartnomani Iroq jamoatchiligi ko'p oylar maboynda tasdiqlamadi.

Arab dunyosi yetakchisi – Misr, bu davrda ingliz qo'shinlarining Suvaysh kanalidan olib chiqib ketilishini talab qilayotgan edi. Turkiya kommunizm xavfi bahonasi bilan ushbu talabga qarshi chiqdi. Misr parlamenti bunga quyidagicha javob berdi: “Agar Angliya garnizoni kommunizmga qarshi strotegik maqsadlarda saqlab turilishi kerak bo'lsa, u Turkiyada joylashishi zarur, Suvaysh kanalida emas”. Oxir-oqibatda Iroq va Iordaniya tomonidan Yaqin Sharq pakti imzolanishi Angliyaning bu mintaqada yangi mustamlakalarni boshqacha yo'l bilan qo'lga kiritish ekanligi ma'lum bo'la boshladi. Turkiyaning Iroq va Iordaniya bilan shartnomalar imzolashi Turkiyani arab dunyosi bilan yaqinlashtirmadi, aksincha uzoqlashtirdi. 40-yillar oxirida ushbu mintaqaga Amerika imperializmi ham suqilib kira boshladi. Bu to'g'risida Amerikalik burjua tarixchisi Hervey Holl shunday deb yozadi: AQSHning ushbu mintaqaga qiziqishiga sabab bu mintaqaning Osiyo, Yevropa va Afrika markazida joylashgan ekanligidir. Agar SSSR bo'lmaganida bu hudud biz uchun haddan tashqari katta bo'lar edi. bu qiziqishga yana ikkita sabab ham bor. Birinchisi neft, ikkinchisi Falastin masalasi edi. Yaqin Sharq siyosatida AQSH uch maqsadni ko'zladi. Birinchi strotegik vaziyat, ikkinchi tabiiy

boyliklarni eksplutatsiya qilish va uchinchi muqaddas yer (Falastin) ni taqsimlashdan iborat edi. Amerika hukumatining fikricha; Falastin hududi arab dunyosini muvozanat markazi bo'lishi kerak edi. AQSH bu hududda ustunlikka erishish uchun va kelajakda harbiy harakatlarni amalga oshirish maqsadida Turkiyani harbiy tayanch baza sifatida tanladi. Turkiyada hukmron doira vakillari tashqi siyosatda AQSH ga suyana boshlashdi. Turkiyaning sobiq ittifoqdoshi Angliya esa, bu vaqtda urush natijasidagi iqtisodiy qiyinchiliklar sababli bu mintaqada o'z mavqeyini yo'qotib bordi. AQSH tashqi ishlar vazirligi Angliyaga berib kelinayotgan moliyaviy yordamlarni to'xtatish orqali Angliyaning Gressiya va Turkiyaga yordam ko'rsatishini yo'qqa chiqardi. Buning natijasida Turkiya hukumati yordam so'rab AQSHga murojat qilishga majbur bo'ldi. 1947 yil 12 martida AQSH kongressida president Trumnn "Trumnn doktrinasi" ni e'lon qildi. Ushbu doktrina asosida Turkiya va Gressiyaga harbiy texnikalarni va transport tizimini qayta tuzish va rivojlantirish uchun 400 mln dollar miqdorida yordam beriladigan bo'ldi. 1947 yil 15 mayda AQSH kongressi Gressiya va Turkiyaga ko'rsatiladigan yordamni tasdiqladi. Ushbu doktrinaning qabul qilinishi Turkiyani AQSHning agressiv siyosati quroliga aylantirib qo'ydi. AQSH Turkiya hududida SSSR va boshqa sotsialistik davlatlarga hamda Yaqin va O'rta Sharqdagi milliy ozodlik harakatlariga qarshi harbiy bazalar qurishni rejalashtirdi². Shuningdek, Turkiyaning 1948 yil 4 iyunda Marshal rejasiga qo'shilishi AQSHning Turkiyada iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan gegemonga aylanishiga olib keldi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yaqin Sharqda vujudga kelgan asosiy muammo, shubhasiz, Falastin muammosi edi. Falastin muammosining vujudga kelishiga BMT Bosh Assambliyasi tomonidan 1947-yil 29-noyabrda Flastinni ikki qismga bo'lish to'g'risidagi qarori sabab bo'ldi. Bu qarorni ovozga qo'yish jarayonida barcha arab davlatlari Falastinning bo'linishiga qarshi ovoz berdi. Turkiya ham o'zini arab davlatlari homiyi sifatida ko'rsatish uchun Falastinni bo'linishiga qarshi ovoz berdi. Ammo tezda ularning tashqi siyosatdagi yo'nalishi o'zgardi va o'zining agressiv-imperialistik qiyofasini namoyish eta boshladi.. 1948 yil 18 mayida Isroil

² Ankara Universitesi Tiirk İnkılbp Tarihi Enstitusu Atatürk Yolu DergisiS 35-36, Mayıs-Kasım 2005, s. 313-332

davlatining tashkil topishiga ovoz berildi va shu tariqa birinchi arab-isroil urushlari boshlanib ketdi. Bu urushning boshlanishiga sabab BMTning 181-sonli qarori bo'ldi. Bu qarorga ko'ra; ikkiga bo'lingan Falastin hududlarida Isroil davlati tuzildi. Ammo Falastin davlati tuzilmay qoldi. Falastinga tegishli bo'lgan hududlarning katta qismini esa Isroil davlati bosib oldi. Hududlarning qolgan qismi Misr va Iordaniyaga nasib qildi. Birinchi Arab-Isroil urushi Isroilning Arab davlatlari bilan tinchlik shartnomasini imzolashi bilan tugadi. Shartnomada urush boshlanishida Isroilning aybdor ekanligi ko'zda tutildi. Turkiya Yaqin Sharqda birinchi bo'lib Isroil davlatini tan oldi va bir yildan so'ng diplomatik munosabatlarni o'rnatdi. Turkiya va Isroil o'rtasidagi do'stona munosabatlar mustahkamlanib bordi. Arab davlatlari, asosan Iroq va Suriya Turkiya bilan 1950 yillar so'ngigacha yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini saqlab qoldi. Angliya va AQSH BMTda Yaqin Sharq xavfsizligi qo'mitasini tuzishga va unda Turkiyaning rahbarligini ta'minlashga urinishdi. Ammo Arab davlatlari bu qo'mitada yetakchi sifatida Livanni tanlashdi. Ushbu siyosiy mojaro 9 kun davom etdi va oxir-oqibatda qo'mitaga yetakchilik qilish Turkiyaga nasib etdi. 50 yillarda AQSH va Angliya Yaqin Sharqda harbiy-siyosiy ittifoq tuzishga bel bog'ladilar va oqibatda bir qancha harbiy-siyosiy shartnomalar imzolandi. Bu shartnomalar bir-biridan shartnoma ishtirokchilari, shartnoma imzolangan vaqt va joyi bilangina farqlanar edi xolos. Shartnomalardan ko'zlangan asosiy maqsad esa mintaqada SSSR va boshqa sotsiolistik davlatlarga qarshi birgalikda harakat qilishdan iborat edi.

Xulosa o'rnida nima deyishimiz mumkin, II jahon urushidan so'ng Yaqin Sharqda vaziyat juda keskinlashdi. Buning asosiy sababi, Yaqin Sharq mintaqasi qarama-qarshiliklar markaziga aylanib qolgandi. Mintaqaga bir tomondan g'arb kopitalizmi, ikkinchi tomondan kommunizm suqilib kira boshladi. Shuhday vaziyatda Turkiya mintaqada gegenmonlikka erishish maqsadida g'arb davlatlariga yaqinlasha boshladi. Bu esa o'z navbatida Turkiyani arab davlatlaridan uzoqlashtirdi. Arab xalqi va rahbarlari Turkiyaga nisbatan ishonchsizlik ko'zi bilan qaray boshladi.